



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRIENDSHIP/DO‘STLIK KONSEPTINING PAREMIOLOGIK-FRAZEOLOGIK MODEL: YADRO VA PERIFERIYA**

**Mamatova Zarrina Shodimuradovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiologik hamda frazeologik birliklar asosida FRIENDSHIP/DO‘STLIK konseptining yadro va periferiya modeli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi do‘stlik konseptining barqaror semantik belgilari, lingvokulturologik xususiyatlari hamda kontekstga sezgir, madaniy jihatdan markerlangan komponentlarini aniqlashdan iborat. Tahlil natijasida do‘stlik konseptining yadrosi yordam, sadoqat, ishonch, halollik va yaqinlik kabi semalar bilan ifodalanishi, periferiya qatlami esa do‘stlik–boylik, do‘st–oyna, do‘stlikning ijtimoiy resurs sifatidagi talqini hamda “o‘z–begona” chegarasi bilan bog‘liq modellar orqali boyitilishi aniqlanadi. Shuningdek, paremiologik birliklar konseptning normativ-aksiologik modelini, frazeologik birliklar esa uning pragmatik va obrazli qatlamini kuchliroq aks ettirishi ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** konsept, do‘stlik, paremiologiya, frazeologiya, yadro, periferiya, semantik model, lingvokulturologiya.

## **ПАРЕМИОЛОГО-ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ КОНЦЕПТА FRIENDSHIP/ДРУЖБА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: ЯДРО И ПЕРИФЕРИЯ**

**Маматова Заррина Шодимурадовна**

Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый  
исследователь

### **Аннотация**

В данной статье на основе паремиологических и фразеологических единиц английского и узбекского языков анализируется ядерно-периферийная модель концепта FRIENDSHIP/ДРУЖБА. Цель исследования заключается в выявлении устойчивых семантических признаков концепта дружбы, его лингвокультурологических особенностей, а также контекстуально обусловленных и культурно маркированных компонентов. Результаты анализа показывают, что ядро концепта дружбы выражается такими семемами, как помощь, верность, доверие, честность и близость. Периферийный слой концепта представлен моделями, связанными с интерпретацией дружбы как социального ресурса (дружба – богатство), метафорой «друг – зеркало», а также с границей «свой – чужой». Также установлено, что паремиологические единицы в большей степени отражают нормативно-aksiologическую модель концепта, тогда как фразеологические единицы более ярко репрезентируют его прагматический и образный уровни.

**Ключевые слова:** концепт, дружба, паремиология, фразеология, ядро, периферия, семантическая модель, лингвокультурология.

## **PAREMIOLOGICAL AND PHRASEOLOGICAL MODEL OF THE FRIENDSHIP CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK: CORE AND PERIPHERY**

**Mamatova Zarrina Shodimuradovna**

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher

### **Abstract**

This article analyzes the core-periphery model of the FRIENDSHIP concept based on paremiological and phraseological units in the English and Uzbek languages. The purpose of the study is to identify the stable semantic features of the friendship concept, its linguocultural characteristics, and the context-sensitive and culturally marked components. The results of the analysis demonstrate that the core of the friendship concept is represented by such semantic features as help, loyalty, trust, honesty, and closeness. The peripheral layer of the concept is enriched by models interpreting friendship as a social resource (friendship as wealth), the metaphor “a friend is a mirror”, and the boundary between “insider and outsider”. It is also shown that paremiological units more strongly reflect the normative-axiological model of the concept, whereas phraseological units reveal its pragmatic and figurative layers more vividly.

**Keywords:** concept, friendship, paremiology, phraseology, core, periphery, semantic model, linguoculturology.

Zamonaviy tilshunoslikda konsept til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatni ochib beruvchi tayanch kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, qadriyat-konseptlar deb ataluvchi birliklar muayyan xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va axloqiy me'yorlari qanday shakllanganini til materiallari asosida ko'rsatishga imkon beradi. FRIENDSHIP/DO'STLIK konsepti shular jumlasiga kirib, insoniy munosabatlarning eng muhim va barqaror modellaridan birini tashkil etadi [10, B. 109]. Do'stlik ko'plab tillarda va madaniyatlarda ijobiy baholangan ijtimoiy qadriyat bo'lishiga qaramay, uning ichki semantik tuzilishi, obrazli ifodasi va pragmatik vazifalari turlicha bo'lishi mumkin.

Do'stlik konseptini o'rganishda paremiologik va frazeologik material alohida ahamiyat kasb etadi. Maqol va matallar kollektiv tajribani umumlashtirib, xalqning normativ qarashlarini ixcham va obrazli shaklda ifodalaydi [14, P. 3]. Frazeologik birliklar esa jonli nutqda munosabatni baholash, yaqinlikni signal qilish, noqulay nutqiy aktlarni yumshatish yoki bahoni kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi [5, P. 12]. Shu bois do'stlik konseptining semantik rekonstruksiyasini aynan paremiologik-frazeologik fond asosida olib borish metodik jihatdan samarali hisoblanadi.

Konseptologik tadqiqotlarda yadro-periferiya modeli keng qo'llanadi. Mazkur modelga ko'ra, konseptning yadro qatlami eng barqaror, ko'p takrorlanadigan va semantik jihatdan kuchli belgilarni o'z ichiga oladi; periferiya esa madaniy, kontekstual va obrazli jihatdan boyitilgan, biroq nisbatan kamroq markaziy bo'lgan komponentlar bilan ifodalanadi [17, B. 34]. FRIENDSHIP/DO'STLIK konsepti uchun ham ayni tamoyil dolzarbdir: do'stlikning ayrim belgilari universal xarakterga ega bo'lsa, boshqalari milliy-lisoniy madaniyat bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi paremiologik hamda frazeologik birliklar asosida do'stlik konseptining yadro va periferiya qatlamlarini aniqlash, ushbu qatlamlarga kiruvchi semantik komponentlarni tavsiflash va qiyosiy tahlil orqali ularning umumiy hamda farqli jihatlarini ko'rsatishdan iborat.

### **Tadqiqot materiali va metodlari**

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi do'stlikka oid maqol, matal va frazeologik birliklar tanlandi. Material saralashda do'stlikning quyidagi semantik belgilarini ifodalovchi birliklarga ustunlik berildi: yordam, sadoqat, ishonch, halollik, ma'naviy yaqinlik, sinov, birdamlik hamda “o'z-begona” qarama-qarshiligi. Tahlil jarayonida konseptual tahlil, qiyosiy-semik tahlil, lingvokulturologik interpretatsiya va yadro-periferiya modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot konseptning uch qatlamli tabiatiga tayanadi: tushunchaviy-semantik qatlam, obrazli qatlam va aksiologik-pragmatik qatlam. Ayniqsa, do'stlik konseptida bu qatlamlar bir-biridan ajralmaydi. Masalan, yordam semasi semantik qatlamga taalluqli bo'lsa, “sinov” freymi obrazli qatlamni, halollik va sadoqat esa aksiologik qatlamni

tashkil etadi. Frazеologik birliklar esa ushbu qatlamlarga pragmatik vektor qo‘shadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, do‘stlik konseptining yadro qatlamini, avvalo, yordam semasi tashkil etadi. Bu sema ingliz materialida *A friend in need is a friend indeed* kabi mashhur paremiya orqali ifodalansa, o‘zbek tilida *Do‘st kulfatda bilinadi* birligi bilan tasdiqlanadi. Har ikki tilda ham do‘stlikning haqiqiyliги qiyin vaziyatda amaliy qo‘llab-quvvatlash orqali tekshiriladi. Demak, yordam do‘stlikning subyektiv hissiy xususiyati emas, balki uning ijtimoiy-axloqiy mezoniga aylanadi.

Yadro qatlamning ikkinchi muhim belgisi sadoqatdir. Ingliz paremiologiyasida sadoqat ko‘pincha do‘stning barqarorligi va ishonchliligiga urg‘u beruvchi birliklarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek paremiologiyasida esa sadoqat ko‘proq qiyin vaziyatda insonni tashlab ketmaslik, uning yonida turish, ma‘naviy tayanch bo‘lish bilan bog‘lanadi. Har ikki holatda ham sadoqat do‘stlikni tasodifiy tanishlikdan farqlovchi asosiy komponent sifatida namoyon bo‘ladi.

Yadroning uchinchi belgisi ishonchdir. Do‘st — ishonchli shaxs, ya‘ni unga suyansa bo‘ladigan, gapiga, niyatiga va harakatiga ishonch bildiriladigan odamdır. Paremiologik va frazeologik birliklar aynan mana shu ijtimoiy-psixologik tayanch funksiyasini ifodalaydi. Do‘stlikning ijtimoiy qadri ham ko‘p jihatdan ishonch bilan belgilanadi.

Yadro qatlamning to‘rtinchi belgisi halollik va rostgo‘ylik bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi *Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib* maqoli do‘stning haqiqiy belgisi sifatida to‘g‘ri gapirish, hatto bu gap yoqimsiz bo‘lsa ham, foydali ekanini ko‘rsatadi. Ingliz materialida ham do‘stning rostgo‘yligi ijobiy baholanadi, garchi u ko‘proq bilvosita yoki obrazli shakllarda namoyon bo‘lsa ham. Bu holat do‘stlikning faqat hissiy iliqlik emas, balki axloqiy to‘g‘rilik bilan bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Nihoyat, yadro qatlam ma‘naviy yaqinlik va o‘zaro ichki aloqadorlik semalari bilan to‘ldiriladi. Do‘st “o‘ziniki” sifatida qabul qilinadi; u tashqi ijtimoiy aloqa emas, balki ichki ishonch doirasiga kiruvchi shaxsdir. Shu ma‘noda, do‘stlikning yadrosi semantik, aksiologik va ijtimoiy qatlamlarning kesishgan nuqtasida joylashadi.

Do‘stlik konseptining periferiya qatlami uning madaniy va obrazli boyish zonasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz materialida bu qatlam ko‘pincha do‘stlikning ijtimoiy resurs sifatidagi talqini bilan bog‘lanadi. Ayrim maqollarda do‘stlik puldan yoki moddiy qadriyatlardan ustun qo‘yiladi. Bunday holatda do‘stlik “boylik” yoki “kapital” metaforasi asosida baholanadi. Bu metafora do‘stlikning iqtisodiy emas, balki ijtimoiy qiymatini ko‘rsatadi, ya‘ni do‘stlik insonning ijtimoiy barqarorligi va himoyasini kuchaytiruvchi resurs sifatida idrok etiladi [12, P. 5].

Yana bir periferiya modeli — do‘st–oyna metaforasidir. Ingliz materialida eski do‘st yoki yaqin do‘st insonning o‘zini anglashiga yordam beruvchi “aks ettiruvchi” figura sifatida talqin qilinadi. Bu model do‘stlikni yordam va ishonch bilan cheklamay, uni refleksiya va o‘zini nazorat qilish vositasiga aylantiradi. O‘zbek materialida aynan “oyna” obrazi keng tarqalmagan bo‘lsa-da, uning funksional ko‘rinishi do‘stning rostgo‘yligi va axloqiy tuzatish vazifasida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek lisoniy madaniyatida periferiya qatlami ko‘proq birlik, hamjihatlik, birdamlik va “o‘z odam”lik semalari bilan kengayadi. Bu holat o‘zbek madaniyatidagi kollektivlik va ijtimoiy yaqinlikning yuqori qadri bilan bog‘liq. Do‘stlik shaxsiy aloqadan tashqari, jamoaviy birdamlik va ijtimoiy tayanch timsoli sifatida ko‘rinadi.

Periferiya qatlamni to‘ldiruvchi yana bir muhim komponent “o‘z–begona” modeli bilan bog‘liq. Do‘st — “o‘z” doirasiga mansub shaxs; dushman yoki begona esa tashqi va xavfli zona bilan bog‘lanadi. Bu oppozitsiya do‘stlikni yanada ravshanroq ko‘rsatishga xizmat qiladi, chunki do‘stning qadri ko‘pincha dushman yoki begonaga qarama-qarshi qo‘yilganda kuchayadi.

Yadro va periferiya tahlilida paremiologik va frazeologik birliklarning funksional farqini hisobga olish muhimdir. Paremiologik birliklar, odatda, umumlashtirilgan xulosa, norma va axloqiy mezonni beradi. Ular do‘stlikning “qanday bo‘lishi kerak”ligi haqida hukm chiqaradi. Shu sababli konseptning yadro qatlamini tiklashda paremiologik material ayniqsa muhimdir.

Frazeologik birliklar esa ko‘proq jonli nutq ichida ishlaydi va do‘stlik konseptining

pragmatik, ekspressiv hamda obrazli qirralarini kuchliroq aks ettiradi. Ular yordam, yaqinlik yoki samimiyatni “signal” qiladi, baho beradi, ba’zan tanqidni yumshatadi. Demak, frazeologiya ko‘proq periferiya va pragmatik qismni boyitadi.

Yadro va periferiya o‘rtasidagi munosabatni qat’iy, mutlaq chiziq bilan ajratib bo‘lmaydi. Konseptologik tadqiqotlarda ko‘p hollarda ayrim belgilar bir vaqtning o‘zida ham yadroviy, ham periferiya tomonida turuvchi “o‘tish” xususiyatiga ega bo‘ladi. FRIENDSHIP/DO‘STLIK konseptida bunday holat, masalan, “sinov” modeli bilan kuzatiladi. Bir tomondan, “sinov” do‘stlikning yadroviy tekshiruv mezoni sifatida ishlaydi; ikkinchi tomondan esa, uning konkret obrazlari, qaysi vaziyat “sinov” deb talqin qilinishi va qanday xulosa chiqarilishi milliy madaniyat hamda tarixiy tajribaga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Shu bois bu komponent ayrim holatlarda yadro semantikasi bilan, ayrim holatlarda esa periferiya freymlari bilan kesishadi.

Xuddi shunday, halollik semasi ham qiziqarli ikki yoqlama tabiatga ega. O‘zbek materialida bu belgi do‘stlikning markaziy axloqiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz materialida esa halollik odatda ishonch va sadoqat tarkibida, ya’ni kengroq semantik maydonning bir qismi sifatida ifodalanadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, yadro bir xil bo‘lgandek ko‘rinsa-da, yadro ichidagi ierarxiya ham lisoniy madaniyatga qarab farqlanishi mumkin [21, P. 21].

Periferiya masalasida esa do‘stlikning ijtimoiy resurs sifatidagi talqini alohida e’tiborni tortadi. Zamonaviy nutqda do‘stlik ba’zan “aloqa”, “tayanch”, “imkoniyat” kabi ijtimoiy-sohaviy mazmunlarni ham o‘z ichiga oladi. Paremiologik fond bu semani to‘liq zamonaviy shaklda bermasligi mumkin, biroq tarixiy qatlamlarda do‘stlikning ijtimoiy qimmat sifatida talqini kuzatiladi. Bu esa periferiya komponentlarining vaqt o‘tishi bilan kuchayishi yoki kuchsizlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Do‘stlik konseptini modellashtirishda paremiologik va frazeologik fond bir-birini to‘ldiruvchi ikki manba sifatida ishlaydi. Paremiologik birliklar konseptning kollektiv ravishda tasdiqlangan, “xalq donishmandligi” darajasiga ko‘tarilgan qoidalarini beradi. Frazeologik birliklar esa do‘stlikning kundalik muloqotdagi jonli, amaliy va ko‘pincha emotsional ko‘rinishini namoyon qiladi. Agar tadqiqot faqat maqollar bilan cheklansa, konseptning normativ-aksiologik yadro qatlami kuchli ochiladi, biroq uning real nutqdagi pragmatik ishlashi to‘liq yoritilmaydi. Agar faqat frazeologiya bilan cheklansa, aksincha, baholash va emotsional signal kuchli ko‘rinadi, lekin normativ umumlashmalar yetishmaydi.

Shu sabab ushbu maqolada tanlangan “paremiologik-frazeologik model” atamasi metodik jihatdan o‘zini oqlaydi. U do‘stlik konseptining bir tomondan xalq xotirasida qanday saqlanishini, ikkinchi tomondan esa kundalik nutqda qanday faollashishini birlashtirish imkonini beradi. Bu birlashuv, ayniqsa, yadro va periferiya masalasida muhimdir: yadro ko‘pincha paremiologik fond orqali, periferiya va pragmatik ranglar esa frazeologik fond orqali aniqroq seziladi.

Yadro–periferiya modelini ishlab chiqish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Avvalo, bunday model tarjimashunoslikda do‘stlikka oid birliklarning qaysi semantik qismi majburiy saqlanishi kerakligini aniqlashga yordam beradi. Agar tarjimon birlikning yadroviy semasini yo‘qotsa, matnning asosiy qadriyati buziladi; periferiya elementlari esa ko‘pincha adaptatsiya yoki funksional moslashtirish orqali berilishi mumkin. Ikkinchidan, model lingvokulturologik o‘qitishda foydalidir: chet tilini o‘rgatishda do‘stlikka oid birliklarni tartibli tizimda berish, ularni yadroviy va periferiya bloklarga ajratish madaniyatlararo tushunishni yengillashtiradi [16, P. 49].

Uchinchidan, model maqol va frazeologizmlar lug‘atini tuzishda ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan, lug‘atda do‘stlik birliklarini faqat alifbo tartibida emas, balki semantik qatlami bo‘yicha — yordam, sadoqat, rostgo‘ylik, birdamlik, ijtimoiy resurs va hokazo — guruhlash foydalanuvchi uchun ham qulayroq, ham ilmiy jihatdan asosliroq natija beradi.

Tadqiqot natijasida FRIENDSHIP/DO‘STLIK konseptining paremiologik-frazeologik modeli yadro va periferiya tamoyili asosida rekonstruksiya qilinishi mumkinligi aniqlandi. Yadro

qatlamini yordam, sadoqat, ishonch, halollik va yaqinlik kabi barqaror semantik belgilar tashkil etadi. Periferiya esa do‘stlik–boylik, do‘st–oyna, birlik, o‘z–begona va ijtimoiy resurs semantikasi orqali boyitiladi. Har ikki til materialida yadro universal xususiyatga ega bo‘lsa, periferiya milliy-madaniy tafakkur va lisoniy stereotiplar bilan shakllanadi. Shuningdek, paremiologik birliklar konseptning normativ-aksiologik qirrasini, frazeologik birliklar esa uning pragmatik va obrazli qirrasini kuchliroq ifodalashi ko‘rsatildi. Natijada FRIENDSHIP/DO‘STLIK konsepti do‘stlikni shunchaki munosabat emas, balki murakkab semantik, aksiologik va lingvokulturologik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. John L. Austin J.L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Mona Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation*. – London: Routledge, 2011.
3. Penelope Brown P., Stephen Levinson S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Anthony P. Cowie A.P. (ed.). *Phraseology: Theory, Analysis and Applications*. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
5. Dobrovol’skij D., Piirainen E. *Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives*. – Amsterdam: Elsevier, 2005.
6. Charles J. Fillmore C.J. *Frame Semantics // Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul: Hanshin Publishing, 1982.
7. Chitra Fernando C. *Idioms and Idiomaticity*. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
8. Raymond W. Gibbs R.W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language and Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
9. Richard P. Honeck R.P. *A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom*. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1997.
10. Vladimir I. Karasik В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Волгоград: Перемена, 2002.
11. Zoltan Kovecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
12. George Lakoff G., Mark Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
13. Stephen Levinson S.C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
14. Wolfgang Mieder W. *Proverbs: A Handbook*. – Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
15. Wolfgang Mieder W. *Proverbs Are Never Out of Season*. – New York: Oxford University Press, 1993.
16. Neal R. Norrick N.R. *How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs*. – Berlin: Mouton, 1985.
17. Zoya Popova З.Д., Igor Sternin И.А. *Когнитивная лингвистика*. – М.: АСТ, 2007.
18. John R. Searle J.R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
19. Gideon Toury G. *Descriptive Translation Studies and Beyond*. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.
20. Anna Wierzbicka A. *Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction*. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1991.
21. Anna Wierzbicka A. *Understanding Cultures Through Their Key Words*. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
22. Zhumabaeva Z. *Paremiological Units as a Reflection of National Culture // Journal of Linguistic Studies*. – 2019.
23. Irina V. Arnold И.В. *Стилистика современного английского языка*. – М., 2012.
24. Valentina N. Teliа В.Н. *Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – М., 1996.